

“Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik” shiori ostida yoshlar sayli bo‘lib o‘tdi



“Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik” shiori ostida yoshlar sayli bo‘lib o‘tdi

Surxondaryo viloyatida “Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida o‘tkazilgan Yoshlar sayli minglab o‘g‘il-qizlarni ayni ezgu maqsad sari birlashtirdi.

Bugun Termiz shahrida boshlangan tadbirlarning gala-konsert dasturida viloyat hokimi Ulug‘bek Qosimov ishtirok etib, yoshlarni bayram bilan muborakbod etdi. Har jabhada ilg‘or, o‘z tengdoshlariga o‘rnak bo‘layotgan yoshlar, yigit-qizlarimizni yetuk kadr qilib tarbiyalashda alohida o‘rnak ko‘rsatayotgan ta‘lim muassasalari pul mukofotlari hamda sport anjomlari bilan taqdirlanib, yoshlar vakillariga sertifikatlar tantanali topshirildi.

Gala-konsert dasturida estradamiz yorqin yulduzlari, Shohruhxon, Sevinch Ismoilova,

Sardor Toirov, "Via marokand", "Bojalar" va "Benom" guruhlari hamda boshqa san'atkorlar, shuningdek, taniqli boshlovchilarning chiqishlari yoshlar saylini haqiqiy bayram shoulariga aylantirdi.

Image not found or type unknown

Yoshlar sayli doirasida bugun kun davomida "Kitoblar karvoni", "Ziyolilar forumi", "Sohibqadri va mehr-saxovat", "Mening qonunim - mening qadrim" kabi turli loyihalari ham o'tkazildi.












Image not found or type unknown







Image not found or type unknown

